

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## INGLIZ VA RUS TILLARI LEKSIK TIPOLOGIYASI

Murotjonov Abduraxmon Abdullatif o'g'li  
QDPI akademik litseyi ingliz tili o'qituvchisi

Xamzayeva Gulbahor Nabiyevna  
QDPI akademik litseyi rus tili o'qituvchisi

### Annotatsiya

Mazkur maqolada ingliz va rus tillaridagi leksik tipologiyasi masalalari bayon etilgan. So'z tilning struktural unsuri sifatida ko'p o'lchamliligi bilan xarakterlanadi. Ularning ma'lum ma'noga hamda ma'lum struktur xususiyatlarga egaligi, o'xshash so'z qatorlarini tashkil etishi, semantik maydonlarga birika olishi, terminologik va noterminologik leksikada ishlatilishi, frazeologizmlar tashkil qila olishi, leksik-grammatik kategoriyalarga ajralishi taqqoslanayotgan tillar leksemalari uchun umumiy belgilar hisoblanadi.

**Kalit so'zlar.** Leksik tipologiya, leksema, termin, struktura, birlik, tadqiqot, hususiyat.

## ЛЕКСИЧЕСКАЯ ТИПОЛОГИЯ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ

Муротджонов Абдурахман Абдуллатиф ўғли  
Учитель английского языка академического лицея КГПИ

Хамзаева Гульбахор Набиевна  
Учитель русского языка академического лицея КГПИ.

### Абстрактный

В данной статье рассмотрены вопросы лексической типологии в английском и русском языках. Слово как структурный элемент языка характеризуется многомерностью. Обладание ими определенным значением и определенными структурными особенностями, образование сходных словесных цепочек, способность объединяться в смысловые поля, использование терминологической и нетерминологической лексики, способность



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

образовывать фразеологизмы, разделение на лексико-грамматические категории. являются для лексем сравниваемых языков общими признаками.

**Ключевые слова.** Лексическая типология, лексема, термин, структура, единица, изучение, признак.

## LEXICAL TYPOLOGY OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES

Murotjonov Abdurakhman Abdullatif ogli  
KSPI academic lyceum English teacher

Khamzayeva Gulbahor Nabiyevna  
KSPI academic lyceum Russian language teacher.

### Abstract

This article describes the issues of lexical typology in English and Russian languages. The word as a structural element of the language is characterized by multidimensionality. Their possession of a certain meaning and certain structural features, the formation of similar word strings, the ability to combine into semantic fields, the use of terminological and non-terminological lexicons, the ability to form phraseologisms, and the separation into lexical-grammatical categories are for the lexemes of the languages being compared. are common signs.

**Keywords.** Lexical typology, lexeme, term, structure, unit, study, feature.

Tilning hamma sathlarida tipologik tadqiqot olib borish mumkin bo'lganidek, leksik sathda, ya'ni so'z ustida ham tipologik tadqiqot ishlarini amalga oshirish mumkin. So'z leksik tipologiyaning predmeti hisoblanadi.

So'zlar ingliz va rus tillarida hamma tillar uchun xos universal deb qabul qilingan xususiyatlar bilan xarakterlanadi. Taqqoslanayotgan tillar boshqa tillardagidek mazmun planiga, ifoda planiga va distributsiyaga ega. "Quruq" so'z bo'lmaganidek, "ovozsiz" so'z ham bo'lmaydi. Ushbuning isboti o'laroq ma'no va strukturaning buzilishiga olib keladigan so'zda harflarni almashtirish jarayonini (masalan, стол - лотс) misol tariqasida keltirish mumkin. Bu esa so'zning til birligi deb atalmish huquqidan mahrum qiladi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

So‘z tilning struktural unsuri sifatida ko‘p o‘lchamliligi bilan xarakterlanadi. Ularning ma‘lum ma‘noga hamda ma‘lum struktur xususiyatlarga egaligi, o‘xshash so‘z qatorlarini tashkil etishi, semantik maydonlarga birika olishi, terminologik va noterminologik leksikada ishlatilishi, frazeologizmlar tashkil qila olishi, turli uslublarda qo‘llanilishi, asl va o‘zlashtirma leksika bilan munosabatda bo‘lishi, konkret va mavhum so‘zlarga bo‘linishi, leksik-grammatik kategoriyalarga ajralishi taqqoslanayotgan tillar leksemalari uchun umumiy belgilar hisoblanadi.

Taqqoslanayotgan tillarning umumiylik xususiyatlarga ega bo‘lishi ularning leksik sistemasi aynan bir xil degani emas. Chunki bu xususiyatlar har bir til sistemasida o‘ziga xos holda namoyon bo‘ladi.

Tashqi ob‘ektiv dunyo o‘z in‘ikosini ongda - inson fikrida topsa, ifodasini esa tilda topadi. Bir tilda ifodalangan fikr ikkinchi bir til vositalari orqali adekvat tarzda “qayta ifodalanishi” mumkin. Til, avvalombor, ma‘lumot yuborish vositasi bo‘lib, har bir til bir xil ma‘lumotni konkret moddiy unsurlar bilan bog‘lagan holda turlicha etkazishi mumkin. Tadqiqotlar natijalari, ingliz va rus tillarida o‘z hajmiga ko‘ra leksika yordamida ifodalangan ma‘lum miqdorda tushunchalar mavjud ekanligini ko‘rsatdi. Masalan, ingliz tilidagi **by-line** so‘zi muallifning, rassomning, suratkashning va hokazolarning ismi, sharifi yoziladigan qatorni bildiradi. Rus tilida esa biz **by-line** so‘ziga taxminan mos keladigan **подпись** so‘zini topamiz. Rus tilidagi **подросток** so‘zi 12 dan 16 gacha bo‘lgan yoshni ifodalasa, ingliz tilidagi **teenager** so‘zi esa 13 dan 19 gacha bo‘lgan yoshni ifodalaydi.

So‘z ma‘nosi doirasi (ko‘lami) tilning milliylik xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, rus tilidagi **человек** so‘zi ingliz tilida **man, person, woman** kabi birliklarga to‘g‘ri keladi. Lekin rus tilidagi bu so‘z ingliz tilidagi so‘zga nisbatan o‘z ma‘nosining kengligi bilan ajralib turadi.

Taqqoslanayotgan tillarda hajm jihatdan ma‘nolarning mos tushmaydigan holatlariga misollar keltiramiz:

high, tall	высокий
finders, toes	пальцы
hand, arm	рука
foot, leg	нога
o‘clock, hour	час
watch, clock	часы
to come, to go,	идти



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

to proceed

So‘z ma‘nosi qisqarish holatlari rus tilida ham kuzatiladi, masalan:

лодка, пароход	boat
палто, пиджак	coat
парта, стол	desk
пол, этаж	floor
пушка, ружьё	gun

Ingliz tilini o‘rganishda talabalarga taqqoslanayotgan so‘zlarning faqat ma‘nolarining ko‘pligi qiyinchilik tug‘dirmasdan (taqqoslaymiz: rus. ещё, ingl. still, yet, else, more, another, other; rus. путешествие, ingl. trip, tour, voyage, cruise), balki ifoda planidagi o‘xshashlik ma‘nolarni to‘g‘ri tanlashda ham qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Taqqoslaymiz: rus. аспирант, ingl. aspirant – кандидат, претендент; rus. гениальный, ingl. genial – мягкий, добрый, плодотворный; rus. дата, ingl. data – статистические данные; rus. артист, ingl. artist – художник; rus. комплекция, ingl. complexion – цвет лица; rus. газета, ingl. gazette – бюллетень va hokazo.

Politic – political, black-blacken, suit-suite, human-humane, continual-continious, comprehensible-comprehensive, comical-comic tipidagi so‘zlarni bir-biridan ajratishda qiyinchilik tug‘ilishi shubhasizdir. Politic (political behavior, politic answer) so‘zi rus tilida ловкий so‘ziga, political (political power, political economy) so‘zi esa rus tilida государственный so‘ziga to‘g‘ri keladi. Continual (continual interruptions, continual reminders, continual reproaches, continual blows) so‘zi rus tilida постоянный, беспрестанный so‘ziga to‘g‘ri keladi. Bir xil o‘zakdagi continious sifati (continious headache, continious range of mountains, continious rain) rus tulida непрекращающийся, сплошной, длительный ma‘nolarini beradi. Mustaqil to‘liq va to‘liq bo‘lmagan ma‘noga ega so‘zlar tahlil qilinayotgan tillarda ko‘p ishlatilishi, xabar berish xususiyatiga hamda mustaqil leksik ma‘noga ega ekanliklari bilan izohlanadi. Ingliz tilida tub so‘zlarning ishlatilish darajasi rus tiliga nisbatan 10% kam (taqqoslaymiz: bog‘lovchi so‘zlar 10% ga ko‘p). Tub va yasma so‘zlarning nutqda son jihatdan ishlatilish xususiyati taqqoslanayotgan har bir tildan olingan 33 ta matnni tahlil qilish natijasida aniqlandi. Har bir tilda 300 ta so‘zdan iborat matnlar tanlandi. Tahlil natijalari jadvalda keltirilgan.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> September - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## Leksik birliklarning ishlatilish darajasi

Soʻzlar soni	Soʻz sinflari Tillar	Tub soʻzlar	Kishi nomlari	Oʻrindosh soʻzlar	Bogʻlovchi soʻzlar
9900	Ingliz tili	4367	514	1407	3612
9900	Rus tili	5381	351	1567	2601

Shunday qilib, ingliz va rus tillarning har ikkisi ham mustaqil maʼnoga ega soʻzlar, kishi va joy nomlari, oʻrindosh soʻzlar va bogʻlovchi soʻzlar xos ekanligini koʻramiz. Ulardan mustaqil maʼnoga ega soʻzlar va bogʻlovchi soʻzlar eng koʻp ishlatiladi. Ingliz tilida rus tiliga nisbatan bogʻlovchi soʻzlarning koʻproq qoʻllanilishi uning analitik til ekanligidan dalolat beradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бўронов Ж. Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973. – 237 б. – Б. 153. 1 <http://lextyp.org/whatis/>
2. Рахилина Е. В., Резникова Т. И. Фреймовый подход к лексической типологии // Вопросы языкознания. – 2013. № 2. – С. 3-31.;
3. Anderson, Lloyd B. Evidentials, paths of change, and mental maps: typologically regular asymmetries. In Chafe, Wallace & Mithun, Marianne (eds.) Evidentiality: The Linguistic Coding of Epistemology. Norwood: Ablex Publishing, 1986. – P. 273-312.

